

O'QUVCHILARNI MILLIY CHOLG'U ASBOBLARI BILAN TANISHTIRISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI.

Mahammatov Abdumannon,


JDPI Musiqa talimi

kafedrası katta o'qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga talim-tarbiya berish jarayonida ularni milliy cholg'u asboblari bilan tanishtirish va uning o'ziga xos yo'llari tasvirlangan va ijro yo'llari ochib berilgan.

Tayanch iboralar: Musiqa merosi, mumtoz musiqa, cholg'u sozlarimiz, rubob, chang, dutor, doira, g'ijjak, nay, tanbur, ud, chanqovuz, karnay, surnay.

Milliy cholg'uchilik san'atimiz ko'p asrlardan buyon xonandalik san'ati bilan yonma-yon kamarbasta rivojlanib keladiki, xatto ko'pincha ularni bir-birisiz tasavvur etib ham bo'lmaydi. Halqimizning jaxon musiqa san'ti muxlislariga ko'z-ko'z qilishga arzigulik boy musiqa merosi bo'lib, ular ustoz hofizlar va mohir sozandalar tomonidan ming yillardan buyon kuylab kelinayotgan mumtoz qo'shiqlar maqomlar, cholg'u kuylari, rang barang cholg'u sozlarimiz o'zining noyobligi, murakkab tuzilishi, cholg'ularimizning dilga yaqinligi jarayonini belgilovchi omil ham ana shu xonandalik va sozandalik san'atidir.



O'zbek milliy cholg'u sozlaridan namunalar

Ryui Gansales de Klavixo o'zining «Buyuk Temur hayoti va faoliyati» (Temur saroyiga sayohat kundaliklari) asarida ko'yidagilarni yozgan Imperator o'tirgan xiyobon yonida juda ko'p sozanda, xofizlar, raqqoslar va raqqosalar o'tirmoqda, musiqa sadolari ko'kni ko'tarmokda edi. ... shu kuni turli tuman tomoshalar ko'rsatildi, xar bir san'atkor qiziq uyinlar ko'rsatib, halqni xursand qildi. ... podsho ixtiyoridagi fillarni qizil, zangori va turli rangda bo'yab, ularning teppasida katta kajova o'rnatilib, raqqos va raqqosalar uyin ko'rsatar edilar. Ularning o'yini tomoshabin qiyqiriqlariga sabab bo'lar, o'zining serzavqligi bilan kishini hayajonga solar edi».

Milliy cholg'u sozlarimizning Saroy tantanalarida va halq ommaviy sayllarida mahorat bilan ijro etilganligi to'g'risida juda ko'p manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Demak cholg'u sozlarimiz tarixi qo'shiqchilik san'atimiz tarixi kabi qadimiydir.

O'zbek milliy musiqa madaniyatimizning boy xazinasini va unda to'plangan musiqiy merosimiz cholg'u sozlarimiz sabablidir. Zero, bu cholg'ular ko'p ming yillar davomida halqimizga ma'naviy ozuqa berib, ularning badiiy estetik didlari shakllanishi omili bo'lib keldi.



Yuqorida aytib o'tganimizdek, qadimdan mashhur hofizlar mohir sozandalardan yetishib chiqqan. Milliy mumtoz qo'shiqchiligimizda durdona asarlar hisoblangan maqomlar va boshqa vazmin yo'lda kuylanuvchi asarlar ritm jihatidan juda ham murakkab asarlar hisoblanadi. Bularning orasida Girya, chapandoz (chapandozi qalandar, charandozi gulyor, chapandozisuvora v ax.k) nasrulloyi, mug'ilcha, talqincha va uforilar murakkab bo'lib, xonanda o'z ovozigacha tanbur, dutor, rud, rubob, ud, doira kabi cholg'ularni chalgan holda jo'r bo'lgan. Ular qaysi cholg'uni chalmasin doira sozini, uning musiqiy usullarini o'zi ijro eta olmasa, yoki xis eta olmasa bunday murakkab musiqa asarlarini ijro eta olmaganlar. Quyida biz milliy cholg'u sozlarimizdan ba'zilariga qisqacha ta'rif berib o'tamiz.

Dutor cholg'usi tasviri



1. **Dutor** – bu so'z forscha bo'lib, «ikki tor» degan ma'noni anglatadi. Yog'ochdan yasali kosa qismi yupqa payraxalarning yelimlab birlashtirilishi orqali yasali (ba'zida o'yma holda ham uchraydi). Dastasi ingichka bo'lib bog'lama pardalar o'rnatiladi. Torlari ipak iplar, yoki mol, kuy, echki kabi hayvonlar ingichka ichagidan yasali. Dutor to'g'risida ma'lumotlar qadim manba'larda uchramaydi, u to'g'rida asosan Temuriylar davri haqidagi manbalarda ma'lumotlar bor. Hozirgi davrda dutor milliy cholg'ularimiz orasida eng peshqadamlaridan biri bo'lib, rekonstruksiya qilinishi natijasida bir oz o'zgarishlarga (bog'lama pardalar o'rniga yog'och pardalar, ipak yoki chak

pardalar o'rniga plastmassa iplar, o'rik yog'ochidan qoplama o'rniga faner qoplama) uchradi va endilikda dutor oilasidan «Dutor prima», «Dutor sekunda», «Dutor al't», «Dutor bas», «Dutor kantrabas»lar ham joy oldi. Bular esa milliy cholg'u sozlarimizdan orkest tuzish imkoniyatini yaratdi. Dutor ovozi mayus va mungli bulib inson ovozi bilan nihoyatda yaxshi uyg'unlashadi. Ansambl ijrochilarida tovushlarni yumshatuvchi bo'lib, barcha cholg'u ansambllari tarkibiga kiritildi. Keyingi davrda uning mohir ijrochilaridan Abdusoat Vaxobov, Yusup Aliev, Davlatoxun Qodirov, Orif Qosimov, Gulom Quchkorov va boshqalar halq orasida tanilgan.

2. **Tanbur** – bu tan, dil, ya'ni dilni qitiqlovchi degan ma'noni anglatadi. Bu cholg'u sozi tug'risidagi ma'lumotlar arab istilosidan oldingi davr, ya'ni Sasoniylar (II-VII asrlar) davriga oid manbalarda ham uchraydi. Tanburning kosa qismi tut yog'ochi dasta qismi va qoplamasi o'rik yoki boshqa qattiq yog'ochdan yasaladi. Tanburning dastasiga yo'g'on bog'lama pardalar o'rnatiladi va torlari bo'sh sozlanadi. Buning boisi shuki, barmoqlar pardalar oralig'iga torni bosgan holda kirib boradi va bu ijrochilikda o'ziga xos nolalar va boshqa bezaklar berish imkonini beradi. Torlari misdan bo'lib egiluvchan, uning tarang tortilmasligidan egiluvchanligi oshadi. Ijrochining o'ng qo'l barmog'iga “noxn” (Metal moslama) taqiladi va asosan shu barmoq bilan chertib chalinadi. Tanburda asosan uchta (bazida to'rtta tor bo'lib kuy aksariyat paski torda chalinadi, qolgan torlar esa vaqti – vaqti bilan paski birinchi torga jo'r bo'ladi. Tanbur ijrochiligi aloxida istedod talab qiladi. Yuragi ezgulikka moyil kishilargina uning nolalarini maromiga yetkaza olishi mumkin. Bu cholg'u asosan xofizlar ovoziga jo'r bo'lishidan tashqari, halq cholg'ulari ansambli va orkestri tarkibiga kiritiladi. Uning mashhur ijrochilari Yusufxon Xakimov, Riqsi Rajabov, Turg'un Alimatov va boshqalarning nomi halq orasida ma'lum.


Qashqar rubobi tasviri



3. **Qashqar rubobi**- Bu cholg‘u to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ham eramizning boshi II – IV asrlarga oid tarixiy manbalarda uchraydi. Ayniqsa uyg‘onish davriga (IX-XII asrlar) oid manbalarda u to‘g‘rida qimmatli ma‘lumotlar mavjud IX-X asrga doir ma‘lumotlar orasida Buxorolik Abubakr Rubobiy to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘lib, Uning Xorazm xonligi saroyida xizmat qilganligi, rubob cholg‘usining mohir ijrochisi bo‘lganligi va o‘sha davrning sharaflari unvoni bo‘lgan “Mutribi movraunnaxr” egasi bo‘lganligi, Buxoroda musiqa maktabi ochganligi va unda o‘qitish uchun qo‘llanmalar yozganligi aytib o‘tilgan. Bu cholg‘u yog‘ochdan yasalgan va qadimda dastasiga bog‘lama pardalar o‘rnatilgan. Kosa qismiga teri qoplama qoplangan bo‘lib, ipak torlar qo‘yilgan hamda xuddi dutor kabi qo‘l barmoqlari bilan tirnab chalingan. Uning dutordan farqi kosa qoplamasi, torlarining soni va dastasining dutorga qaraganda qisqaroqligida bo‘lgan.

Cholg‘u sozlarini rekonstruksiya qilish natijasida uning ipak torlari o‘rniga po‘lat simlar, bag‘lama pardalar o‘rniga mis yoki jez pardalar qo‘yilib, pardalardagi nimchorak va chorak to‘nliklar olib tashlandi va bir xil xramatik yarim tonlik pardalar o‘rnatildi. Endilikda u qo‘l bilan tirnolib emas mediator bilan chalinadi. Rekonstruksiya natijasida uning Rubob prima, Rubob soprano, Qashqar rubobi, Afg‘on rubobi, kabi yangi xillari yaratildi. Bu cholg‘u sozlari o‘zbek milliy cholg‘u sozlari orkestri ijrochiligida keng qo‘llanilmoqda. Qashqar rubobi va Afg‘on rubobi cholg‘u ansamblarimizda qo‘llanilayapti. Keyingi yillarda Muhammadjon Mirzaev, Qobuljon Usmonov, Shavkat Mirzaev kabi mohir rubobchilar halqimiz orsida nom taratgan.

G'ijjak tasviri



4. **G'ijjak** – Bu soz asli “Qo‘buz” sozidan andaza olib yasalgan bo‘lib, kelib chiqish tarixi Qo‘qondir. U to‘g‘ridagi ma‘lumotlar uyg‘onish davri (IX-XII asrlar)ga oid manbalarda ham uchraydi. G‘ijjak cholg‘usining saroy kasbiy musiqasida o‘z munosib o‘rni mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida tarixiy manbalarda aytib o‘tilgan. G‘ijjak - yog‘ochdan yasalgan bo‘lib kosa qismiga teri qoplama qoplanadi. Doskasi qisqa, parda o‘rnatilmagan. Uning shjrochilari tovushlar balandligini barmoq qo‘yish joylari va barmoqlar qalinligiga qarab aniqlashadi. Unda to‘rt tor bo‘lib ,to‘rt xil balandlikda sozlanganligi sababli ijro yetiladigan asarlar uchun asarlar dastaning qisqaligi noqulaylik tug‘dirmaydi. G‘ijjak-yog‘ochga ot yoli o‘rnatilib yasalgan kamoncha bilan chalinadi. Kamoncha ijrodan oldin albatta yelimlanadi. Kamonchaga surtilgan yelim g‘ijak torlarini tebratadi, aks holda kamoncha torda sirg‘alib uni tebrata olmaydi . Shuni aytish kerakki, bu chalchg‘u sozida pardalar bo‘lmaganligi, kerakli tonni barmoqlar qidirib topishi sababli uning ijrochisi yuksak musiqa eshitish qobiliyatiga (Muzikalniy slux) ega bo‘lishi lozim, bu siz musiqa tovushlari balandigini to‘g‘ri belgilab bo‘lmaydi Ansambl va orkestr ijrochiligida g‘ijjak tovushlarni bir-biriga bog‘lovchi vazifasini bajaradi.

Uning kamonchalari turli uzunlikda bo‘ladi, yani 2 xisali 3 xisali 4 xissali. Kamonchalar uzunligi va dastadagi pardalarning bo‘lmasligi milliy musiqamizdagi bezaklar uchun juda qulaydir. Kengi davrdagi uning mohir ijrochilari To‘xtasin Jalilov, Inomjon Ikromov, G‘anijon Toshmatov, Abduxoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov va boshqalardir.

Nay tasviri



5. **Nay**- milliy cholg‘u sozlarimiz ichida eng qadimiy sozlardan biri. Bu cholg‘u yer yuzidagi barcha halklar musiqasida turli nom bilan qo‘llaniladi. Yurtimizda olib borilayotgan arxiologik qidiruv ishlari natijasida Samarqand viloyati Urgut tuman Mo‘minobod qishlog‘idan, ayol kabridan turli taqinchoq bezaklar bilan birga suyakdan yasalgan, jimjimador naqshlar bilan bezalgan nay sozi topilgan. Ekspert tekshiruvlar natijasida uning yasalishi tarixi bundan besh ming yil oldin ekanligi aniqlangan. Nay tug‘risidagi ma‘lumotlar yurtimizning antik davri (earimzdan avvalgi IV-I sarlar)ga oid tarixiy manbalarda ham uchraydi. Nay sozining qadimiyligi to‘g‘risida xatto rivoyatlar ham mavjud.

Temuriylar davri tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida yozishicha Samarqandning mohir sozandalaridan biri naychi Sulton Axmad dev ona bo‘lib, mazkur nay sozida kuy chalgan vaqda “murdaga jon kirib ketar edi” deb tariflaydi. U ruxiy dardga chalingan bo‘lib, yilda bir – ikki kasallanar va tezda o‘ziga kelar ekan. U Xoja Axror Valiyga juda o‘rganib qolgan bo‘lib, Xoja Axror Valiy ham uni benihoya izzat qilar edi. Xoja Axror Valiy Vafotidan so‘ng u butkul devona bo‘lib qolgan ekan.

Nay – bombuk tanasidan yasaladigan cholg‘u bo‘lib, ichi g‘ovak bo‘ladi va puflab chalinadi. Puflanadigan kismi, ya‘ni puflanadigan teshigi yonidan g‘ovak yog‘och probka bilan berkitiladi. Yog‘och probkani siljitish orqali nay sozlanadi. Nay cholg‘uvchi sozandalar ko‘krak qismiga ko‘prok xavo to‘plab, so‘ngra tejab sarflaydilar. Bu esa cholg‘u ijrochiligida muhimdir. Nayning olti teshigi barmoqlar bilan berkitilishi va yarim berkitilishi orkali butun va yarim tonliklar xosil qilinadi. Unda milliy musiqiy bezaklar berish imkoniyati katta bo‘lib, g‘ijjak kabi ansanbl ijrochiligida musiqiy xissalarni bir-biriga bog‘lash xususiyati bor. Uning ovozi baland bulib, ansanbl ijrosini to‘ldiradi va cholg‘uchining yo‘l ko‘ygan

xatosi darhol ko‘zga tashlanadi. Milliy musiqa madaniyatimizda uning ko‘shnay, bulamon, sibizg‘a, surnay, karnay kabi oiladoshlari keng qo‘llaniladi. Keyingi davrdagi uning mohir ijrochilari Abduqodir Ismoilov, Ayub Qodirov, Saidjon Kalonov, Dadaali Soatqulov, Mirza Toirov, Xalimjon Juraev va boshqalar nom qozongan.

Doira tasviri



6. **Doira** – Cholg‘u sozlarining ichida eng qadimiysi urib chalinadigan cholg‘ular xisoblanadi. U insoniyatning ibtidosiga, ya’ni inson olovni kashf etgan davrlarga borib qadaladi. Urib chalinuvchi cholg‘ular oilasiga doiradan tashkari doul, baraban (xar xil barabanlar) nog‘ora, tabl, tablok, daf likopcha, zang , safoil, turli xil ko‘rinishdagi shiqildoqlar, qayroq kiradi. Doira uzum daraxti tanasini egib yasalgan gardishga teri qoplash hamda gardishga shiqildoqlar o‘rnatilishi orqali yasaladi. Musiqa ijrochiligida doira ritmni ushlab va metr va ulchovlarni xisoblash vazifasini bajaradi. Ansambl ijrochiligida bu cholg‘u musiqiy asar ijrosini boshlash, tezlikni maromda ushlab turish va asarni tugallash vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun uni ansambl yetakchisi deb aytadilar. Uning beshta notasi bo‘lib; ular katta bum, katta bak, kichik bum, kichik bak va noxun deb ataladi. O‘zbek milliy musiqasi juda ham musiqiy doira usullariga boy bo‘lib, ular saksondan oshiqdir. G‘arb musiqachilari bizning milliy masiqamizdagi bunday bir biridan murakkab usullarning ko‘pligiga ajablanadilar va shuning uchun milliy musiqalarimizni ijro etishga kiynaladilar. Cholg‘uchi musiqiy usullarni dilida

sanab, takrorlab turmasa, ijro jarayonida usulni yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Keyingi davrda bu soz orqali nom taratgan cholg‘uchilar Usta Olim Komilov, Tuychi Inog‘omov, Qaxramon Dadaev, Ta‘lat Sayfutdinov, Aka-uka Elmurod, Dilmurod, Holmurod Islomovlar, Anvar Baraev va boshqalardir.


Chang tasviri



Chang – yog‘ochdan yasalgan chog‘u bo‘lib, kelib chiqishi qadimiydir. Chang cholg‘usi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar antik davr tug‘risidagi manbalarda ham uchraydi. Bu cholg‘u tug‘risida arab ertaklari bo‘lmish “Ming bir kecha” asarida ham ma‘lumotlar bor. Bundan tashqari Abu Nasr Al-Farobiy va boshqalarning o‘rta asrlarda yozib qoldirgan ilmiy – musiqiy risolalarida shuningdek topilayotgan arxeologik topilmalarda ham uning ko‘xna cholg‘u sozi ekanligini isbotlovchi dalillar bor. Milliy cholg‘ularimiz restovratsiyasidan keyin (1934-1940-yillar) uning chang prima, chang pikkola, chang alt va chang bas kabi turlari yaratildi. Chang urib chalinadigan torli cholg‘u bo‘lib, bambukdan yasalgan tayoqchalar uchiga rezina kiygizilgan holda chalinadi. Diapazoni to‘rt aktava bo‘lib, xar bir tovush uchun uchtdan tor o‘rnatilgan va jami 76 ta tori bo‘ladi. Uning uchta oyog‘i yerdan balandda tutib turadi. Oldingi oyog‘ida pedal urnatilgan bo‘lib, u tovush jaranglarini ushlab turuvchi moslamani ishlatish uchun qo‘yilgan. Xar bir ijrodan oldin torlarning sozini tekshirib ko‘rish talab qilinadi va buning uchun maxsus kalitdan foydalaniladi. Chunki yog‘och ob-xavo sharoitiga ko‘ra o‘z xususiyatini o‘zgartiradi. Chang sozing mohir ijrochilari Faxriddin Sodikov, Matyusuf Xarratov, Fozil Xarratov, Pulatjon Raximov, Tilash Xujamberdiev,

Axmad Odilov, Fazilat Shukurova, Rustam Ne'matov va boshqalardir. Milliy cholg'u sozlari ansanbli va orkestrida chang sozing munosib o'rni bor. Bundan tashqari milliy konservatoriyamizda maxsus changchilar ansanbli faoliyat ko'rsatadi.

Ud tasviri



8. **Ud** – bizga ma'lum bo'lgan tarixiy manbalarning guvohlik berishicha bu cholg'u sozi. Milliy cholg'ularimiz ichida eng qadimiylaridan biridir. U qadimdan saroykasbiy musiqasida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan. U tug'ridagi ma'lumotlar o'rta asrlarga oid tarixiy manbalarda, xususan Abu Nasr Al-Farobiyning "Musiqaxakuidagi katta kitob" Kaykovusning "Kobusnoma" asarida Abu Ali Ibn Sinoning "Tib konunlari" asarida arab tarixchisi As-Saolibiyning "Yatimat at-daxr", Firdavsiyning "Shoxnoma"si va boshqa ko'plab tarixiy asarlarda ud sozi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Shuni aytish kerakki, XVI-XIX asrlarga kelib yurtimiz mayda xonliklarga bo'linib ketgach ushbu cholg'u soziga bo'lgan e'tibor susaygan va asta sekin yurtimiz musiqiy xayotidan chiqib ketgan edi. Mustaqilligimiz davrida Samarqand shaxrida tashqil qilingan Osiyo va Afrika mamalakatlar musiqafestevali (keyinchalik bu festeval "Shark taronalari" nomi bilan xar ikki yilda tashqil qilinmoqda) ni tashqil yetish sharofati bilan ud va qonun cholg'usi o'z vataniga kaytarildi.

Jumladan kobusnomada ud sozi va uning ijrosi to'g'risida shunday deyiladi:

Majlisda o'tirgan vaktingda majlis axliga qara, agar eshituvchi qizil yuzlik, mosh gurunch soqol bulsa (musiqasbobi, ya'ni udning) ikkinchi torida chalgin, agar sariq yuzli bo'lsa bum torida chalgin, agar qora yuzli savdoyi oriq bo'lsa

ko'proq musiqa sozinig uchinchi torida chalingan, agar badani oq va semiz pilchillagan nam bo'lsa, yo'g'on torda chalgin. Chunki odamning to'rt tabiati uchun muxayyo qilganlar.

Ud yog'ochdan yasalgan cholg'u bo'lib, kosa qismi juda katta, ba'zan o'yma holda, aksariyat kovurg'ali hollarda, dastasi juda qisqa va pardalar qo'yilmaydi. Bu esa ud sozida milliy musiqiy bezaklar berish uchun kulaylik tug'diradi. Ud sozing 11 ta tori bo'lib, juft – juft chalinadi, shunda 5 juft va 1 bum tori yakka ijro etiladi. Uni ijro etish uchun mediator (noxun) ishlatiladi. Keyingi davrada bu cholg'u maxsus uqitilmoqda va halq cholg'u ansambllarida keng qo'llanilmoqda. Ansanbl va orkestr ijrosida u yo'g'on (bas) tovushini beruvchi cholg'ular jumlasiga kiradi.

9. **Qonun** – yog'ochdan xuddi chang sozi kabi trapetsiya shaklida yasalgan satxli cholg'udir. Qonun sozing o'ng tomon satxiga teri qoplanadi va u xarrakni ko'tarib turadi, kolgan qismi esa yog'ochdan tashkil topadi. Uning jami 75 ta tori bulib, qadimda ipakdan xozidra esa jilka ipdan tortiladi. Ijro jarayonida o'ng qo'l va chap qo'l ko'rsatgich barmoqlariga noxun (maxsus tunikadan yasalgan barmoqqa kieiluvchi moslama) kiyiladi, yoki ebonit materialidan ishlangan mediatorlar yordamida tizzaga qo'yib chalinadi.

Ba'zi yozma manbalarda qonun sozi Abu Nasr Al-Frobiy tomonidan X asr boshlarida yaratilganligi aytilsada, olib borilayotgan ilmiy izlanishlar taxlili qonun sozining Farobiygacha ham mavjud bo'lganligini tasdiqlamoqda. Nima bo'lganda ham qonun sozi bizning yurtimizda qadimdan mavjud bo'lganligini tasdiqlovchi dalillarga egamiz.

Qonun cholg'u sozi hozirgi zamon milliy musiqa san'atimizda muvoffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. O'quv dargoxlarida maxsus qonun sinflari bo'lib, ushbu cholg'u ijrochiligi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda. Bu cholg'u milliy cholg'u ansambllari hamda xonandalar qo'shiqlariga jo'r novoz sifatida muvoffaqiyat qozonilmoqda va uni milliy arkestrlarimiz safiga kiritish ustida ish olib borilmoqda.

O'zbek milliy chog'u sozlari turlari xilma-xil bo'lib, biz ularning barchasiga ta'rif berib o'tmadik. Ze'ro milliy cholg'u sozlarimizdan qushnay, sibizga,

chanqovuz, do‘mbira, surnay, karnay, dovul, nog‘ora, qo‘shnog‘ora, qo‘buz, burg‘u, bundan tashqari cholg‘usi sozlarini rekontruksiya qilish natijasida yaratilgan, ularning yangi variantlari sato va bobur g‘ijjagi hamda cholg‘u sozlarining eng kenja avlodi bo‘lgan “manzur” cholg‘usi tug‘risida, shuningdek qadimda mavjud bo‘lib, xozirda ularning fakatgina nomlarigina qolgan rud, shoxrud, ko‘s, chag‘ana, shaynur, arganun (yoki arg‘anchun) likopcha kabi cholg‘ular to‘g‘risida batafsil to‘xtalmadik. Bu cholg‘ular to‘g‘risida batafsil keyingi ilmiy izlanishlarimizda malumot beramiz.

Xulosa qilib olganimizda, uzbek milliy cholg‘ularimiz bilan o‘quvchilarni tanishtirish ularda milliy qadriyatlarimizga bulgan xurmat, uning tarixiy ahamiyati, oxang yo‘llari, cholg‘ularning yasalish holati va boshqa o‘ziga xos tomonlarini o‘quvchilarga tanishtirish kelajakda ularni kamol topishida muhim omil bulib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. I.A.Karimov. Bunyodkorlik yo‘lidan. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 1996-yil.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” matbaa nashriyoti. 1998-yil.
3. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. –T.: “Sharq” matbaa nashriyoti. 1999-yil.
4. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat” nashriyoti. 2008-yil.
5. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 2004-yil.
6. O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogika texnologiyalarning tadbiiy asoslari. –T.: “Fan” nashriyoti. 2006-yil.
7. V.N.Maksimova. Mejpredmetnye svyazi v protsesse obucheniya. –M.: “Prosvishenie”. 1988-god.
8. S.X.Yo‘ldosheva. O‘zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 1985-yil.
9. T.Ye.Solomonova. O‘zbek musiqasi tarixi. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 1981-yil.
10. I.Rajabiy. Maqomlar masalasiga doir. –T.: “Badiiy adabiyot” nashriyoti. 1963-yil.
11. J.To‘lenov, Z.G‘afurov. Falsafa. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti 1997-yil.

12. B.S.Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz ta'lim. –T.: 2005-yil. №1-son.
13. Nizomiy nomli TDPU (Res.ilm.anjuman). Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi. –T.: 2009-yil.
14. A.Qodiriy nomli JDPI (Res.ilm.anjuman). Yoshlar ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifalari. –J.: 2006-yil.
15. G.Sharipova. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. –T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti. 2003-yil.
16. K.Mahkamjonov, F.Xo'jaev. Jismoniy tarbiya (2-sinf darsligi). –T.: “O'zbekiston” nashriyoti. 2003-yil.
17. S.I.Bekina, T.P.Lomova, Ye.I.Sakovnina. Музыка и движение. –M.: “Prosvishenie”. 1984-god.
18. Ye.P.Iova, A.Ya.Ioffe, O.D.Golovchiner. Utrennaya gimnastika pod muzyku. –M.: “Prosvishenie”. 1984-god.
19. M.Qosimova. Bolalar bog'chasida o'zbek halq milliy raqslari. –T.: “Halq merosi” nashriyoti. 2003-yil.
20. N.Abrayqulova. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. –T.: “Halq merosi” nashriyoti. 2003-yil.